

**Maxsudova Onorxon Bekmurod qizi**

Yozyovon tumani 24-umumiy o‘rta ta’lim maktabi,

ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi.

---

### **ABDUQAYUM YO‘LDASHEV QISSALARI POETIKASI**

**Annotatsiya:** mazkur maqolada so‘nggi yillarda Abduqayum Yo‘ldoshev qissalari tahliliga bashg‘ishlab yozilgan maqolalar tahliliga e’tibor qaratilgan. Bu orqali ijodkorning qissa yaratishda o‘ziga xos uslubini namoyon etish va muallifning poetik mahoratiga e’tibor qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** qissa, an’ana, novatorlik, poetika, ijodiy niyat, zamonaviy adabiyot, yangicha yondashuv, qahramon, ijtimoiy muammolar.

**Annotation:** this article focuses on the analysis of articles written in the past years on the analysis of stories by Abdukayum Yoldashev. Through this, the emphasis is placed on the manifestation of the creator's unique style in creating a narrative and on the poetic skill of the author.

**Keywords:** short story, tradition, novelism, poetics, creative intention, modern literature, a new approach, hero, social problems.

**Аннотация:** данная статья посвящена анализу статей, посвященных рассказам Абдукаяма Юлдашева за последние годы. Посредством этого делается акцент на проявлении уникального стиля создателя в создании рассказа и на поэтическом мастерстве автора.

**Ключевые слова:** повествование, традиция, новаторство, поэтика, творческий замысел, современная литература, новый подход, герой, социальные проблемы.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida o‘z ovozi va o‘rniga ega bo‘lgan ijodkorlardan bir bu shubhasiz Abduqayum Yo‘ldoshev hisoblanadi. Abduqayum Yo‘ldoshev o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos o‘ringa ega ijodkorlardan biri hisoblanadi. Uning har bir asarida bir biriga o‘xshamagan voqealar, qahramonlar, ruhiyat tasvirlari uchraydi. Shuningdek qissalarda davr va qahramon masalasi, obrazlar talqini asarning asosiy bo‘g‘inini tashkil etadi. O‘zbek nasrida XX asrning mahsuli realistik qissa janri namunalarining amaliy va nazariy mohiyati yozuvchilarimizga ibrat namunasi bo‘lib kelmoqda. Barchamizga ma’lumki, epik adabiy turiga mansub janrlar orasida qissa janrining ommabopligi alohida ajralib turadi. Har qanday ijodkorning yaratgan asariga baho berishda, uni g‘oyaviy badiiy jihatdan tahlil etishda davr masalasi yetakchilik qiladi. Chunki ijodkor o‘zi yashab turgan muhit, davr va siyosat talablaridan kelib chiqqan holda ijod qiladi. Odatda barcha asarlarda qahramon va davr mutanosib bo‘ladi. Ya‘ni qahramon davrdan o‘zib ketadi, qahramon va davr hamohanglikda harakatlanadi yoki aksinchcha qahramon davrdan ortda qoladi. Ijodkorlar inson ruhiyatining eng injo qirralarigacha kirib bordiki, endi ular qahramonning ko‘ngil qatlardan turib o‘z “so‘z”larini ayta boshladi. Darhaqiqat, badiiy asardagi kishilar hayotimizning tiniq vakili bo‘lib, muayyan sharoit mahsuli sifatida harakat etadi. Chunki tiniq xarakterdagи harakat asar sujetida o,,z ifodasini topadi. Qissada badiiy tasvirlar shu darajada o‘z aksini topadiki, qahramon ruhiyati muhit tasviri bilan bog‘lanib ketadi.

Qissa milliy kitobxonlikning, adabiy jarayonning qiyofasini ko‘rsatuvchi o‘ta muhim janr. Romanga yetmagan, hikoyaga sig‘magan oraliq ijodiy quvvat qissada aks etadi. Aynan qissa

chinakam kitobxonlarni saralab, tarbiyalab, romanga tayyorlab beruvchi oraliq janrdir. Qissa ijodkorda romanik tafakkurning shakllanishidagi pillapoya. Qissanavislardir ertangi romannavislardir. Qissa, odatda, bir va bir necha shaxslar taqdirliga oid turli voqealarni o‘ziga asos qilib olishi bilan epik turning hikoya, hajmi va mazmunining nisbatan cheklanganligi bilan romandan farq qiladi. Qissalar hayot murakkabliklarini hikoyaga nisbatan kengroq, xarakter hamda vogelik ko‘lamini romanga qaraganda kamroq qamrab oladi. Qissada u yoki bu shaxs hayotining ma’lum bir davri xronikal tarzda bayon qilinadi. Qissada lirizm hikoya va romandagidan kuchliroq bo‘lishi mumkin.

Mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida epik turning rivojlanib borayotgani quvonarli hol, albatta. Bugungi kun o‘zbek xalqining hayotida yuz berayotgan hodisalarni badiiy yo‘sinda adabiyotda aks etib borishi epik turning bir janri sifatida qissachlikda ham ko‘zga tashlanadi. Qissalar syujetida talqin qilinayotgan konflikt, avvalo, insonning ong oqimiga ta’sir o‘tkazmoqda. Bu qissalarda hayotning murakkab qirralari, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatlar, insonning botiniy olamidagi konfliktlar teran talqin etilmoqda. San’atkorlar davr talabidan kelib chiqan holda ijod qilmoqdalar. Ularning ijodiga nazar solsangiz, avvalo, shunga amin bo‘lasizki, ular inson muammolarini ko‘tarib chiqishdan to‘xtab qolgani yo‘q. “Davr insonni chetlab, hech narsa yarata olmaydi. Davr inson va uning maqsadi orqali ta’sir omiliga aylanadi. Bunda har kimga har xil ta’sir etadi. Chunki turli davrda insonlarning jamiyatda tutgan o‘rni turlichadir. Bunda har kimga har xil ta’sir etadi. Chunki turli davrda insonlarning jamiyatda tutgan o‘rni turlichadir”[ 2 ]. Istiqlol davri o‘zbek nasridagi o‘zgarishlar haqida adabiyotshunos olim R.Qo‘chqorning “Endi jiddiy gapga o‘tadigan bo‘lsak, bugungi adabiy avlodning g‘oyaviy-badiiy qarashlari bir xillikdan uzoq –hayotning o‘zidek rang-barang ekani, ijodkorlarning vogelikni idrok etish va uni talqin qilish usul-uslublari bir-biriga o‘xshamasligi, eng muhimi –yosh o‘zbek shoir-yozuvchilari dunyoning ilg‘or adabiyotlariga bo‘ylashib ijod qilayotganini sezmaslik mumkin emas”, [Quronov Sadulla va b. 1;69-bet] fikrlari istiqlol muhitida olam va odam mavzulari aks etgan asarlarda yaqqol seziladi [1 ]. Adabiyotshunoslik ilmidan ma’lumki, har qanday asar o‘z zamonusi, davri muammolariga, o‘sha kunlarning dolzarb savollariga bergan javobi sifatida maydonga keladi. Ijodkor xoh tarixiy, xoh zamonusi asar yozsin ularda o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’naviy belgilari o‘z aksini topgan bo‘ladi. Qissaalarda qahramonlarning insoniy qiyofasini belgilashda jamiyatda tutgan o‘rni, turmush tarzi, o‘zini qanday tutishini emas, qalb go‘zalligini asosiy mezon qilib belgilagan. Yozuvchi asarlarini o‘qigan kitobxon xuddi asar qahramoni kabi qisqa muddat ichida, tashqi vogelik davomida o‘z umrining muhim daqiqa va davrlarini ko‘z oldiga keltiradi, mulohaza qiladi, o‘zining har bir qadamda yo‘l qo‘ygan xatolari, yo‘qotishlari, yutuqlari, firib, aldash, aldanish va hokazo kabilarni, xullas, bor hayotini imtihon qiladi. Shunday qilib, yozuvchi asarlarida teztez uзilib, yana tiklanib turuvchi mulohaza, fikr oqimi, xotiralar asarning ichki fabulasini tashkil qiladi. Obrazlarning o‘z o‘tmishiga munosabati juda faol va erkendir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Farxod Nizomov. (2024). “Otchopar Yoxud O‘N Uchinchi Uy” Qissasida An’Ana Va Vorisiylik. Konferensiyanlar Conferences, 1(4), 328–332. Retrieved From <Https://Www.Uzresearchers.Com/Index.Php/Conferences/Article/View/1802>.
2. Gafurovich, S. A. (2021). Analysis Of The Poem “Autumn Dreams” By Abdulla Oripov. The American Journal Of Social Science And Education Innovations, 3(01), 556-559.
3. Jo‘Rayeva, M.; Odilov, X.. Ayol Ma’Navyatining O‘Zgarishidagi Omillar. 1190-1197.
4. Amanboyevich, Raximov Shuxratbek, And Mamadaliyeva Mashhuraxon Erkinjon Qizi. "O ‘Zbek Qissalarida Konflikt." Talqin Va Tadqiqotlar Ilmiy-Uslubiy Jurnali 1.9 (2022): 30-34.
5. Bekzod Abdikarim O‘G‘Li Qarshihev Zamonaviy O‘Zbek Qissalarida Badiiy Tafakkur Ifodasi // Academic Research In Educational Sciences. 2023. №Samtsau Conference 1. Url: <Https://Cyberleninka.Ru/Article/n/Zamonaviy-o-Zbek-Qissalarida-Badiiy-Tafakkur-Ifodasi>.